

“BAYRAM” KONSEPTIGA OID INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Aslonov Firdavs Baxtiyor o‘g‘li

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida o‘qituvchisi
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Mazkur maqola “bayram” konseptini ifodalovchi ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarning tadqiqiga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan bir qator misollar keltirilib, ulardagi tarixiy, etnik, milliy-madaniy xususiyatlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: konsept, bayram, frazeologik birlik, milliy-madaniy xususiyat, lingvomadaniy mazmun.

Abstract. The present article investigates English and Uzbek phraseological units which reflect the content of the concept “holiday”. The author gives examples of such units and reveals their historical, ethnic-cultural and national-specific potential.

Key words: concept, holiday, phraseological unit, national-cultural specific, lingual-cultural potential.

Ingliz tilida “bayram” konseptiga oid frazeologik birliklar.

The holidays are a large part of culture, so it is no surprise that English has many holiday related idioms and expressions. They are:

The more – the merrier. The more people or things there are, the better situation will be. It is positive idiom. Bu ijobiy ma’nodagi ibora hisoblanadi.

O‘zbek tilida “*Qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi*” ma’nosini beradi.

Hatto ushbu ibora nomi bilan ataluvchi asar ham mavjuddir. Uning muallifi Florenc Michelson hisoblanadi. Ushbu kitob kichik hajmli hikoyalar to‘plamidir. [Rainbow works; Tell a Tale edition January 1, 1964]

Masalan: Is it ok if my friends come to dinner? Do‘stlarim tushlikka kelsalar maylimi? Sure! *The more the merrier.* – Albatta! Qancha ko‘pchilik bo‘lsa, shuncha yaxshi.

Do not look a gift horse in the mouth. It means – Do not be ungrateful when you receive something. Ushbu iboraning o‘zbekcha to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q. Ammo, ma’nosi “boriga qanoat qil” yoki “boriga baraka” kabi birliklarga yaqin keladi. [Kunin A.V. Bolshoy anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – M.: “Russkiyyazik”, 1984. 944 bet].

Masalan: *even if you did not get what you wanted you should not look a gift horse in the mouth.* Hatto sen o‘zing xohlagan narsani olmagan bo‘lsang ham boriga qanoat qil.

A white Christmas. You might have heard this phrase in a popular Christmas song. This idiom came about because there is usually snow on the ground on Christmas day in many parts of the world. Ushbu ibora barchaga ma’lum va mashhur bo‘lgan qo‘shiqda ham uchraydi. Ma’nosi shundan iboratki, odatda ushbu bayram nishonlanadigan vaqtda yer yuzining aksariyat joylarida qor mavsumi bo‘ladi.



Ushbu ibora shunga ishora tariqasida o‘ylab topilgan. *What are the chances of a white Christmas this year? Do you know?* Bu yil Rojdestvo qorli bo‘lish ehtimoli qanday? Bilasanmi? *We can never have a white Christmas here in Australia.* Bu iborada esa biroz boshqacharoq tushuncha mavjud. Bizga geografiyadan ma‘lumki, Avstraliya davlati ekvatoridan janubda joylashgan. Ushbu mamlakatda dekabr, yanvar oylari yozning chillasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu ibora ham shu faktga asosan olingan. Ma‘nosi: “Avstraliyada hech qachon qorli Rojdestvo bo‘lmaydi” degani. [Frank Sinatra. song “White Christmas”] *This the season to be jolly, everyone! Merry Christmas to all of you!* Bayram hammaga quvonchli bo‘lsin! Hammaga Rojdestvo muborak! [Noviy bolshoy anglo-russkiy slovar pod obshim rukovodstvom akad. Yu.D. Apresyan]

There is no place like home for the holiday. When all members of the family are together. O‘zbek tilida “Bayram uchun uydan qulayroq joy yo‘q” tarzida tarjima qilinadi. Ushbu ibora har qanday ingliz bayramlariga mos tushadi. Bu ibora ayniqsa, hamma oila a‘zolari to‘planganda, oila davrasida yoki shunga da‘vat qilish ma‘nosida qo‘llaniladi. Aynan shu o‘rinda “home sweet home” iborasi ham ishlatiladi. I have to turn my back on my family. May they forgive me for my losing my head. Yana oilam tomon qaytib keldim. Ular meni aqlsizliklarim uchun kechirishsa edi. [Stephan Cushman, No place like home 2002, Louisiana State University Press]

Christmas comes but once a year. Rojdestvo bayrami yiliga faqatgina bir marta nishonlanadi. Ushbu iboraning mohiyati shundan iboratki, yilida bir marta nishonlanadigan ushbu bayramda barcha odamlar jamiki yomonlik, gina-kudratlarni unutib, bir-biriga yaxshilik va yaxshi gaplar ulashadi. Ushbu ibora xuddi shu nomdagi qisqa metrajli filmdan so‘ng paydo bo‘lgan. 1936-yilda yaratilgan ushbu film bolalar uyida namoyish etiladi va ilk bor yangraydi. [Phrase and Ideom Dictionary, 2007]

Deck the Halls. To deck the halls means to decorate one’s home with Christmas decorations. This idiom is from a famous Christmas carol. Ushbu ibora dunyoga mashhur bo‘lgan qo‘shiqdan olingan. Ma‘nosi bayram oldidan tayyorgarlik ko‘rib, xonalarni bayramona ruhga keltirishni bildiradi. Ya‘ni turli xil bayram bezaklari bilan bezatiladi. Kelib chiqishiga ko‘ra, ushbu ibora Uels davlatiga borib taqaladi. Jumladan, ushbu qo‘shiqda quyidagi jumlar bor: “Deck the halls with boughs of holly”. [Pentatonix, APentatonix Christmas, 2016, song]

O‘zbek tilida “bayram” konseptiga oid frazeologik birliklar:

Frazeologik iboralar o‘z ma‘nodoshlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, ma‘noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqeahodisalarga guvoh bo‘lish, kishilarning xilma-xil harakat holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Aholining turli qatlamlari tomonidan har bir sohaga doir frazeologik birliklar yaratilgan bo‘lib, ular tilimizni yanada boy va jozibali bo‘lishiga xizmat qiladi. Ularni bir-biridan tubdan farq qiladigan turli sohalarda bo‘lganligi esa tilimizni rang-barang qiladi.

Ushbu sohalar ichida eng ko‘p frazeologik birliklarni o‘z ichiga olganlaridan madaniyat va ma‘naviyat sohasidir. Ushbu soha har bir xalqning o‘ziga xosligini aks ettirib, faqat shu xalqqagina xos bo‘lgan urf-odatlar, qadriyatlar va marosimlarni o‘zida aks ettiradi. Urf-odatlar deganda har birimizning hayolimizga avvalo bayramlar keladi. Sababi azaldan bizning xalqimiz bayramlari ko‘pligi va ularning keng ko‘lamli nishonlanishi bilan ajralib turgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Barchamizga ma‘lumki, bizning yurtimizda bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elat vakillari ahil va inoq bo‘lib yashashadi. Bu esa o‘z navbatida urf-odatlarining ham turlicha bo‘lishini taqazo etadi. Demak ushbu marosimlarga xos bo‘lgan frazeologizmlar ham xilma-xil bo‘ladi. Keling quyida “bayram” so‘zi atrofida yuzaga kelgan va foydalaniladigan iboralarni ko‘rib chiqamiz. Ularning aksariyat hollarda qay o‘rinda ishlatilishi, o‘z va ko‘chma ma‘nolari haqida batafsil to‘xtalishga harakat qilamiz.



Ushbu birliklarni shartli ravishda turli toifalarga bo'lib o'rgansak va tahlil qilsak bo'ladi. Shunday holatlar va misollar borki, ularning ko'pchiligi aynan bir xil ma'noga teng bo'ladi. Misol tariqasida insonning xursandligi, kayfiyati yaxshi ekanligiga ishora qiluvchi misollarni ko'rib chiqamiz.

Boshi osmonga yetmoq – xursand bo'lmoq, baxtiyor bo'lmoq, sevinmoq kabi ma'nolarni ifodalab keladigan iboradir. Ushbu frazeologik birlik insonning hissiy-emotsional holatini bildirish uchun ishlatiladi. Albatta ushbu birlik ham boshqalari kabi asosan ko'chma ma'noda ishlatiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, o'z ma'nosida ham qo'llasa bo'lishini biz fantastik janrdagi ertaklarda ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu ibora o'z navbatida, bo'rttirish, mubolag'a san'ati orqali ifodalangan. Ma'lum bir shaxsning yoki bo'lmasa shaxslar guruhining g'oyatda kayfiyati chog' ekanligini, buning natijasida boshi osmon qadar ko'tarilganligini bildirmoqda. Shuningdek, xursandchiligi ichiga sig'maydi, og'zi qulog'ida kabi birliklar ayni yuqorida to'xtalib o'tilgan hislarni bildiradi. Bundan tashqari, chiroyi ochilmoq, chehrasi ochilmoq, dimog'i chog' bo'lmoq, terisiga sig'may ketmoq, do'ppisini osmonga otmoq kabi iboralar ham bunga misol bo'la oladi. Ushbu iboralarda tananing ma'lum bir a'zosiga ta'rif berish barobarida insonning butun boshli ruhiy holati yoritib berilgan. Xo'sh, nega endi aynan bu turdagi iboralardan boshladik, sababi har qanday bayram yoki tadbirlarga xos bo'lgan eng asosiy xususiyat bu insonlarga yaxshi kayfiyat ulashish va ko'nglini ko'tarishdir. Hamda bu kabi iboralarda ko'p hollarda albatta so'zlar o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

“Osh bermoq” – ushbu ibora nisbatan kengroq ma'no kasb etadi. Sabablar esa bisyor. Birinchidan, bu o'zbek milliy taomi, bundan tashqari, har qanday bayramning ajralmas qismi hisoblanadi. Hatto Navro'z bayramida sumalak tayyorlansa ham baribir osh qilinadi va sevib iste'mol qilinadi. Endi bevosita iboraning o'ziga to'xtalib o'tsak. Avvalo biz iborani asl mohiyatini anglashni istasak, ushbu iborani o'z ma'nosida emas ko'chma ma'noda tushunishimiz lozim. Bermog' fe'li ona tili darsligidan ma'lumki, biror predmetni boshqa bir shaxsga uzatmoq, ulashmoq ma'nolarini beradi. Ammo bu yerda osh taomini jismonan kimgadur uzatish nazarda tutilmayapti. Asl ma'no esa tarixdan shakllanib kelayotgan urf-odatlariga yashiringan desak ayni muddao bo'ladi. Ota-bobolarimizdan eshitganlarimiz, tarixiy kino va hattoki badiiy asarlardan o'qiganlarimizga asoslanib, shuni aytish mumkinki, xalqimiz azaldan biror-bir baxtli, quvonchli voqea-hodisani o'ziga xos tarzda nishonlashgan. Aksariyat hollarda shu va shunga o'xshash boshqa tadbirlarning asosiy taomi osh bo'lganligi bois, bora-bora har qanday turdagi ziyofat, bayramlarda yoziladigan dasturxonni “osh berish” tarzida nomlana boshlangan.

“Bir boshini ikki qilmoq” – oilali bo'lmoq, turmush qurmoq. Navbatdagi iboramiz bevosita turmush bilan bog'liq. Ushbu ibora odatda ikki xil holatda ishlatiladi. Ikki yoshning ya'ni yigit va qizning unashtirilishidan so'ng va to'y-tomoshadan so'ng. Albatta, Siam egizaklari bundan mustasno! Ushbu iboraga ko'ra, insonning hayot yo'llarini jufti bilan bog'lanishi nazarda tutiladi. Ba'zi badiiy asarlarda esa ushbu iboraga sinonim sifatida boshqa misollar ham ishlatiladi. Masalan: “Boshini bog'liq qilmoq” yoki “Oyog'ini to'rtta qilmoq” kabilar uchraydi. Endi ushbu iboralarni bevosita badiiy asarlarda ishlatilgan holatini ko'rib chiqsak. “Bilib qo'y sen endi boshi bog'liq qizsan” [“Ikki eshik orasi”, O'tkir Xoshimov, 178-bet]. “Tanangizga o'ylang, o'g'lim, siz tengilar uch-to'rt bolali bo'ldi, qovunning ham oldini oldin, keyini keyin, oyog'ingizni to'rtta qilib qo'yaylik.” [“Ikki eshik orasi”, O'tkir Xoshimov, 475-bet]

“To'ydan oldin nog'ora chalmoq” – ushbu ibora hozirgi kunga kelib ma'no nuqtai nazaridan shoshqaloq odamlarga nisbatan ishlatiladi. Doimo shoshilinch qaror chiqaradigan, hali sodir bo'lmagan narsa uchun hammani besaramjon qiladigan, bir so'z bilan aytganda besabr, shoshqaloq odam tushuniladi. Bevosita ushbu iborani tashkil qilgan so'zlar e'tiborni qaratsak. To'y, nog'ora, chalmoq kabi so'zlar o'zbek xalqiga xos bo'lgan bayramlar orasida eng e'tiborga molik bo'lmish to'y tadbiriga tegishlidir.



Til, ma'daniyat, mentalitet, dunyoqarash, din va geografik joylashuv. Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar aksariyat ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchilarni ajratib turadi. Ushbu sanab o'tilgan jihatlarni birlashtirib turadigan bir jihat ham bor. Ushbu jihat-bayram tushunchasi. Xo'sh qanday qilib? Agar xoh u o'zbek tilida so'zlashadigan xalq bo'lsin va xoh ingliz tilida so'zlashsin, ularning bayramlari, diniy yoki dunyoviy bo'ladi. Til, ma'daniyat va hatto geografik o'rinlarga xos bo'lgan bayramlar ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. –176b.
2. Abu Nasr Farobiy.Fozil odamlar shahri. – Toshkent. : A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –.... b.
3. Abdu-r-raxman bin Hammad al-Umar. Religiya istini (Islam). T.:Chulpan.,1992.
4. Antologiya konseptov/ Pod red. V.I. Karasika, I.A Sternina. – M.: Gnozis, 2007.
5. 511 s.
6. Avesto. A. Mahkam tarjimasi . – T. : Sharq, 2001.
7. Askoldov S.A. Konsept i slovo/Russkaya slovestnost. Ot teorii slovestnosti k strukture teksta. M.: Akademiya, 1997.
8. Aynazarov G.B. Simmetrichniye dvuxkomponentniye frazeologizmi v karakalpaxskom yazike. Nukus.: 2000.
9. Azizov U. Two perspectives on linguistics in Uzbekistan: Implications for teaching, analysis and research. - Tashkent : www.journa.fledu.uz O'zbekistonda xorijiy tillar. Ilmiy metodik elektron jurnal, 2017 yil. -

